



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI SHO‘RCHI TUMANI HOKIMINING
QARORI

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500 tel.: (+99876) 457-41-00, shurchi_t@exat.uz

2022 года «13» мая

161-8-120-Q/22

Хокимият Шурчинского района

Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer maydoniga mulk huquqini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer maydoni vakolatli tashkilotlar bilan kelishilganligi hamda o‘tkazilgan muhokamasini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Sho‘rchi tumani “Joyilma” MFY hududidan 0,0060 gektardan iborat unikal raqami №P172222605883-10, “YERELEKTRON” ATT dasturi orqali tadbirkorlik faoliyati uchun auksion savdolariga chiqarish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida elektron dastur orqali vakolatli tashkilotlarning kelishuvi hamda muhokamadan o‘tkazilganligi inobatga olinsin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi Sho‘rchi tuman filiali (Ch.Mamatqulov) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni Sho‘rchi tuman hokimligi nomiga davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini hamda yer

hisobotiga tegishli o'zgartirish kiritilish hamda ushbu bo'sh yer uchastkasi Sho'rchi tuman hokimligi nomiga mulk huquqi asosida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi ta'minlasin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari A.Chulibaev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Xudoyberganov B.X